

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.




MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срожиддинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
МАМЛАКАТИМИЗДА QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	



MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Yuldashova Nilufar Ziyabayevna

SamISI "Iqtisodiy tahlil va statistika" katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: yuldashovan04@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada mamlakatimiz qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Qishloq joylarda xizmatlar sektorini kengaytirish orqali aholi bandligini oshirish, daromad manbalarini ko'paytirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasining qishloq hududlari iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri, mavjud rivojlanish omillari hamda ushbu sohani yanada takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, qishloq hududlari, iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo'jaligi, bandlik, infratuzilma, tadbirkorlik, hududiy rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. This scientific article analyzes the economic and social importance of developing the service sector in rural areas of the country. The study highlights opportunities to increase employment, diversify income sources, develop infrastructure, and reduce regional economic disparities through the expansion of the service sector in rural areas. Furthermore, the impact of the service sector on the economic development of rural territories is examined, and key directions for improving the efficiency of this sector are identified.

Key words: service sector, rural areas, economic development, agriculture, employment, infrastructure, entrepreneurship, regional development, economic stability.

Аннотация. В данной научной статье анализируется экономическое и социальное значение развития сферы услуг в сельских районах нашей страны. Рассматриваются возможности повышения занятости населения, диверсификации источников доходов, развития инфраструктуры и сокращения экономических различий между регионами за счёт расширения сектора услуг в сельской местности. Также на научной основе проанализировано влияние сферы услуг на экономическое развитие сельских территорий, а также представлены направления дальнейшего совершенствования данной сферы.

Ключевые слова: сфера услуг, сельская местность, экономическое развитие, сельское хозяйство, занятость, инфраструктура, предпринимательство, региональное развитие, экономическая стабильность.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda xizmatlar sohasining o'zni tobora ortib bormoqda. Xizmatlar sektori nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim manbalaridan biri, balki aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismi aynan xizmatlar sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Shu sababli iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish jarayonida xizmatlar sektorini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.



Mamlakatimizda ham iqtisodiy islohotlar jarayonida xizmatlar sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlar sektorini kengaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qishloq joylarda yashovchi aholi mamlakat umumiy aholisining sezilarli qismini tashkil etadi. Shu bois ularning turmush darajasini oshirish, bandligini ta'minlash hamda iqtisodiy faolligini kuchaytirish milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

Qishloq hududlarida xizmatlar sektorining rivojlanishi savdo, transport, aloqa, turizm, bank-moliya xizmatlari, maishiy xizmat ko'rsatish, axborot texnologiyalari, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ko'plab yo'nalishlarni qamrab oladi. Mazkur xizmat turlarining rivojlanishi qishloq aholisining kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga ham xizmat qiladi. Xizmatlar sohasining kengayishi yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholining daromad manbalarini kengaytirish imkonini beradi. Natijada qishloq hududlarining iqtisodiy salohiyati ortib, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish jarayonida ayrim tashkiliy va institutsional jihatlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Jumladan, infratuzilmani modernizatsiya qilish, zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda investitsiya resurslarini samarali jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi mamlakatimiz qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish, ushbu sohaning hududiy rivojlanishga ta'sirini o'rganish hamda mavjud rivojlanish omillarini aniqlab, xizmatlar sektorini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari qishloq hududlarida xizmatlar sektorini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish hamda hududiy iqtisodiy siyosatni samarali amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qishloq hududlarida xizmatlar sohasining rivojlanish holatini o'rganish hamda uning samaradorligini baholash maqsadida turli ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tadqiqot jarayonida grafik tahlil, statistik tahlil, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy yondashuv, analiz hamda sintez usullari qo'llanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish masalasi iqtisodiyot nazariyasi va hududiy rivojlanish yo'nalishida muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar xizmatlar sektorining iqtisodiy o'sish, aholi bandligi hamda hududiy rivojlanishga ta'sirini keng yoritib beradi. Iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida xizmatlar sohasi iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanib, uning rivojlanishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Iqtisodiy rivojlanish nazariyasida xizmatlar sektorining ahamiyati haqida M. Todaro va S. Smith tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda batafsil ma'lumotlar berilgan. Ularning fikricha, xizmatlar sektori iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi hamda aholi bandligini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1].

Xizmatlar sohasining marketing va boshqaruv jihatlari esa P. Kotler va K. Keller tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida xizmatlar bozorining rivojlanishi, xizmatlar sifatini oshirish, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish hamda xizmatlar marketingining zamonaviy usullari ilmiy asosda yoritib berilgan [2].

Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham xizmatlar sohasining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri keng tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarga ko'ra, xizmatlar sektori iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi [3].

Osiyo taraqqiyot banki tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishida xizmatlar sektorining o'rni alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq hududlarida transport, savdo, turizm hamda moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi [4].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham xizmatlar sohasini rivojlantirish masalalarini keng tadqiq etganlar. Jumladan, Sh. Shodmonov va U. G'afurov o'z ilmiy ishlarida xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi o'rni muhim ekanligini ta'kidlab, uning rivojlanishi aholining turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynashini qayd etganlar [5]. Shuningdek, A. O'lmasovning ilmiy tadqiqotlarida xizmatlar bozorining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [6].



Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektorining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki hududiy rivojlanishni ta'minlash, aholi bandligini kengaytirish hamda turmush darajasini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish masalasi ilmiy jihatdan dolzarb bo'lib, ushbu yo'nalishda kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Xizmatlar sektori iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki aholi farovonligini yuksaltirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligiga qaramlik darajasini kamaytirish va aholi daromadlarini oshirish imkoniyati kengayadi.

Birinchidan, qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq joylarda aholining muhim qismi an'anaviy ravishda qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanadi. Biroq ushbu faoliyat ko'pincha mavsumiy xususiyatga ega bo'lgani sababli yil davomida barqaror daromad manbaini to'liq ta'minlay olmaydi. Xizmatlar sektorining rivojlanishi esa aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratib, ularning iqtisodiy faolligini oshiradi. Masalan, savdo, transport, maishiy xizmat ko'rsatish, turizm, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat turlarining kengayishi qishloq hududlarida bandlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Natijada aholi daromadlari ortib, turmush darajasi yaxshilanadi.

Ikkinchidan, xizmatlar sohasining rivojlanishi qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi. Qishloq joylarda kichik savdo shoxobchalari, servis markazlari, transport xizmatlari, maishiy xizmat ko'rsatish ustaxonalari hamda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish orqali tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mumkin. Bu esa iqtisodiy faollikni rag'batlantirib, mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xizmatlar sektorining kengayishi yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini ham oshiradi.

Uchinchidan, qishloq hududlarida xizmatlar sohasining rivojlanishi infratuzilmaning takomillashishiga ham xizmat qiladi. Zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish uchun transport, aloqa, internet tarmoqlari, bank-moliya xizmatlari va boshqa infratuzilma elementlarining rivojlangan bo'lishi muhim hisoblanadi. Shu sababli xizmatlar sektorining kengayishi ushbu infratuzilma tarmoqlarini modernizatsiya qilishni rag'batlantiradi. Masalan, raqamli texnologiyalar asosida ko'rsatiladigan xizmatlar, onlayn savdo, elektron to'lov tizimlari, masofaviy ta'lim hamda telemeditsina kabi xizmatlar qishloq hududlarida aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

To'rtinchidan, xizmatlar sektorining rivojlanishi qishloq hududlarining investitsion jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Hududlarda turli xizmat turlarining rivojlanishi investorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantiradi. Masalan, turizm, savdo, logistika va transport xizmatlari kabi yo'nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mahalliy byudjet daromadlarini oshirishga yordam beradi.

Beshinchidan, qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish hududiy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qishloq hududlarida zamonaviy xizmatlar tarmog'ining rivojlanishi aholining shaharlarga migratsiya qilish ehtiyojini kamaytiradi. Chunki aholi o'z yashash hududida ham zarur xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, qishloq hududlarida xizmatlar sektorini rivojlantirish jarayonida ayrim tashkiliy va institutsional jihatlarni takomillashtirish zarurati mavjud. Jumladan, xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ushbu sohaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash orqali xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Umuman olganda, qishloq hududlarida xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, aholi bandligini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda hududiy rivojlanish darajasini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ushbu sohani rivojlantirish mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xizmatlar sektori iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, daromad manbalarini kengaytirish hamda hududlarning



ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlar sektorining rivojlanishi iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish va qishloq xo'jaligiga qaramlik darajasini kamaytirish imkonini beradi.

Qishloq hududlarida xizmatlar tarmog'ining kengayishi aholi turmush darajasining oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Savdo, transport, maishiy xizmatlar, turizm, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi xizmat turlarining rivojlanishi qishloq aholisi uchun qulay ijtimoiy sharoit yaratadi. Natijada aholining kundalik ehtiyojlarini qondiruvchi xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib, turmush sifati va ijtimoiy farovonlik darajasi oshadi.

Shu bilan birga, xizmatlar sektorining rivojlanishi qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga ham turtki beradi. Kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatiladigan turli xizmatlar iqtisodiy faollikni oshirib, mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, xizmatlar sektorining kengayishi yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini ham oshiradi. Natijada hududlarda yangi loyihalar amalga oshirilib, xizmat ko'rsatish hajmi ortadi hamda mahalliy byudjet daromadlari ko'payadi.

Qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar qishloq hududlarida zamonaviy xizmat turlari keng rivojlantirilsa, aholining shaharlarga ko'chib ketish ehtiyoji kamayadi va hududiy migratsiya darajasi pasayadi. Bu esa hududlar o'rtasida iqtisodiy muvozanatni ta'minlash hamda barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, qishloq hududlarida xizmatlar sektorini rivojlantirish jarayonida ayrim tashkiliy va institutsional jihatlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Jumladan, infratuzilmani modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan samarali iqtisodiy siyosat yuritish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Kelgusida qishloq hududlarida xizmatlar sektorini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy infratuzilmani kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion xizmat turlarini rivojlantirish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Shuningdek, qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar hamda investitsiyalarni jalb qilish orqali xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish mumkin.

Umuman olganda, qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. – 13th ed. – New York: Pearson Education, 2020.
2. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. – 16th ed. – London: Pearson Education Limited, 2021.
3. World Bank. World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery. – Washington, DC: World Bank Publications, 2022.
4. Asian Development Bank. Rural Development and Service Sector Growth in Asia. – Manila: ADB Publications, 2021.
5. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti, 2020.
6. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2021.
7. Ziyonet axborot-ta'lim portal. – <https://www.ziyonet.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>